

UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABLARIDA MUSIQA DARSINING AHAMIYATI

Xalilova Mahfuza Maxamadjonovna

*Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
musiqa ta`limi kafedrasida o`qituvchisi
O`zbekiston*

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqola o`rta ta`limda musiqa fani haqida yozilgan bo`lib unda maktablarda musiqa darslarining nechog`lik muhim va o`quvchilarga musiqa darsini o`tilishining maqsadi to`g`risida yozilgan. Maktab o`quvchilariga musiqaning ta`siri va foydasi hamda musiqa o`qituvchilariga tavsiyalar keltirilgan.

Tayanch so`z: Musiqa, musiqa o`qituvchisi, ovoz sozlash, musiqa madaniyati, chapak chalish, Pedagogik mavqe, qo`l harakati bilan imitatsiya qilish.

ЗНАЧЕНИЕ УРОКОВ МУЗЫКИ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Халилова Махфуза Махамаджоновна

Чирчикский государственный педагогический институт Ташкентской области
Преподаватель кафедры музыкального образования, Узбекистан

АННОТАЦИЯ

Эта статья о музыкальном образовании в средней школе, в которой рассказывается о том, как важны уроки музыки в школах и какова цель проведения уроков музыки для учащихся. Влияние и польза музыки для школьников, а также рекомендации для учителей музыки.

Ключевые слова: Подражание музыке, учитель музыки, постановка голоса, музыкальная культура, хлопанье в ладоши, педагогическая позиция, движения руками.

THE IMPORTANCE OF MUSIC LESSONS IN SECONDARY SCHOOLS

Xalilova Makhfuza Makhamajonovna

Chirchik State Pedagogical Institute, Tashkent Region

Lecturer at the Department of Music Education, Uzbekistan

Annotation:

The article deals with the science of music in education, how important music lessons are in schools and the purpose of teaching music to students. The impact and benefits of music for schoolchildren and recommendations for music teachers.

Keywords Music, music teacher, voting, music culture, applause, pedagogical position, imitation of hand movements.

Musiqa madaniy hayotimizda keng o`rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san`at turidir. Yosh avlodni kamolot sari yetaklashda tarbiyaning ko`plab omillari qatori musiqa tarbiyasi alohida o`rin tutadi. Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo`lib, insonni atrofdagi go`zal narsalarni to`g`ri idrok etishga va qadrlashga o`rgatadi.

Umumiy o`rta ta`lim maktablarida musiqa fanini o`qitishning asosiy maqsadi o`quvchilarda musiqa madaniyatini shakllantirish ularni zamon talabiga javob bera oladigan barkamol inson qilib voyaga yetkazishdir. Maktabda musiqa darslarini o`qitishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- O`quvchilarning musiqa san`atiga bo`lgan qiziqishi va mehr-muhabbatini oshirish;
- musiqiy faoliyatlar jarayonida o`quvchilarni musiqiy qobiliyatlari musiqiy uquvi, ovozi, diqqat-e`tibori va ijodkorlik his-tuyg`ularini o`stirish;
- musiqiy asarlarning badiiy g`oyaviy mazmuni vositasida axloqiy estetik ruhda tarbiyalash;
- musiqa darslarida o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish, mehnatga muhabbat, vatanga muhabbat, kattalarga hurmat tuyg`ularini shakllantirish.

Mazkur maqsad va vazifalarni amalga oshirish o`qituvchining kasbiy va pedagogik mahoratlariga bog`liq. Har qanday san`atkor ham, maktabda musiqa madaniyati darslarini olib borolmaydi. Buning uchun musiqa o`qituvchisi avvalo bolalarni sevishi,

pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasi, musiqa o`qitish metodikasi hamda o`z musiqiy kasbiy fanlarini puxta o`zlashtirgan bo`lishi kerak.

Musiqa o`qituvchisi o`z kasbiga va bolalarga mehr qo`ygan , yuksak madaniyatli, keng dunyoqarashga ega bo`lgan, zamon bilan hamnafas inson bo`lishi lozim.

Donishmand xalqimiz azaldan kuy va qo`shiqni bola qalbiga tez yo`l topa olishi , uning ruhiyatiga ijobiy ta`sir ko`rsatishi, yaxshi xulq va odob, mehr oqibat, sabr-toqat, kattalarga hurmat fazilatlarini musiqa orqali tarkib topishini azaldan anglab yetgan. Oilada farzandni qo`shiq aytishga, soz chalishga o`rgatish ota-onaning orzusi bo`lgan. Bola musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, musiqadan umrbod ozuqa oladi. Chunki bola hali yurishni, so`zlashni bilmay turib, musiqani eshitib, turli qo`l harakatlari bilan musiqaga munosabatini bildiradi. Shuning uchun azaldan har bir oilada musiqa cholg`u asboblardan dutor, doira, rubob saqlash urf-odat bo`lib qolgan. Musiqadan ozuqa olish uchun esa, inson sof qalb egasi, yuksak ma`naviyatli, go`zallikni his eta oladigan inson bo`lishi kerak. „Har qanday jamiyatning kelajagi yoshlar ekan, kelajagi buyuk davlatning barpo etilishi, ularni qanday tarbiya olishiga bog`liq. Chunki ma`naviy jihatdan qudratli davlat, ijtimoiy jihatdan kuchli bo`ladi.” deb ta`kidlaydi o`z asarlarida yurtboshimiz I.A.Karimov.

O`qituvchilik kasbi sharafli, lekin juda murakkab kasbdir. O`qituvchi musiqa nazariyasini egallashi bilan birga, bolalarni sevishi, pedagogik amaliyotni ham o`tgan bo`lishi kerak. Chunki maktab hayotidagi pedagogik jarayon juda xilma-xildir. Bu esa musiqa o`qituvchisidan puxta bilim, amaliy tayyorgarlikni talab etadi.

„Biz sog`lom avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishimiz kerak” deb ta`kidlagan edi yurtboshimiz I.A.Karimov. Sog`lom kishi deganda, faqat jismoniy sog`lomlikni emas, balki sog`lom ruhiy hislatlarni, sharqona axloq odob va umumbashariy g`oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz.

Buyuk pedagog A.Avloniy shunday degan edi: „Tarbiya qiluvchilar tabib kabi, tabib hastani badanidagi kasallikka davo qilgani kabi, O`qituvchi ham bolani musiqa orqali, aqliy rivojiga diqqat markaziga ta`sir etib, ularda poklik, vijdon, sadoqat, mehr, kattalarga hurmat, Vatanga muhabbat kabi tuyg`ularni tarbiyalaydi”. „Tarbiya biz

uchun yo hayot-yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat -yo falokat masalasidir” deb yozgan edi.

Buyuk mutafakkir shoir A.Navoiy o`z asarlarida musiqa tarbiyasining qirralarini chuqur o`rganib shunday dedi: „Musiqa jamiyat hayotining muhim negizidir. Faqat musiqagina odamning qalbiga tiniqlik, mutanosiblik va o`z-o`zidan qanoat tuyg`usini olib kiradi va uni baxtiyor qiladi”.

Al Farobiy fikricha: „Musiqa-nodir san`at, ezgulikka yetaklovchi kuchdir”.

- „Kimki ilm hikmat o`rganmoqchi bo`lsa, avvalo o`zi ma`naviy barkamollikka erishmog`i lozim” -deydi -Abu Rayhon Beruniy. Shunday ekan, hozirgi davrda musiqa o`qituvchisidan mas`uliyat, fanga yangicha yondoshuv uning metodologiyasini chuqur o`rganish talab etadi.

O`qituvchi darslarda o`quvchilarga bo`lgan talabchanlikni bolalarga hurmat, ziyraklik, pedagogik mavqe, obro`sini saqlagan holda yondoshishni namoyon etish bilan muvofiqlashtirgan holda olib borishi lozim. Musiqa madaniyati darslarining yutug`i va natijalari nafaqat o`qituvchining tayyorgarligiga, balki o`quvchilarning tayyorgarliklariga ham bog`liq bo`ladi. Afsuski, bu masalaga ko`pgina yosh o`qituvchilar o`zlarining amaliy ishlarida yetarli darajada e`tibor bermayaptilar.

Yetti yillik o`qish davrida musiqa sohasida muntazam sur`atda ish olib borilishi natijasida o`quvchilar musiqa savodiga ega bo`lib, musiqani sevadigan, yirik musiqa asarlarini, shuningdek, konsertlarni, radio va televideniye orqali beriladigan musiqali eshtirishlarni mehr qo`yib tinglaydigan, badiiy havaskorlik to`garaklarida yetarli tayyorgarlik bilan faol qatnashadigan kishilar bo`lib voyaga yetishlari kerak. Bu tadbirlarni amalga oshirishda sinf rahbarlari va ota-onalar musiqa o`qituvchisiga yaqindan yordam berishlari lozim, ya`ni ular bu borada ham hamkorlik qilishlari zarur.

Bolalarda musiqaga mehr va havas uyg`otish, maktab o`quvchilarining musiqiy saviyasini oshirish uchun ashula va musiqa sohasida olib boriladigan sinfdan tashqari ishlarni har tomonlama kuchaytirish lozim. Boshlang`ich va 9 yillik maktablarning har birida xor to`garaklari, sharoiti bor bo`lgan maktablarda cholg`u asboblari bo`lishi kerak. Ayni vaqtda o`quvchilarga yakka tartibda musiqa o`rgatish ishini uyushtirishga

e`tibor berish, bu ishga ota-onalar jamoatchiligini jalb etish yaxshi samara beradi, degan fikrlar mavjud.

Musiqa madaniyati darsining har bir faoliyat turida shaqildoqlar, uchburchaklar, metallofon, doirachalar kabi turli bolalar musiqa asboblarida chalish, kuy va qo`shiq'larga mos raqs elementlarini bajarish, musiqa asboblarini chalishni qo`l harakati bilan imitatsiya qilish, chapak chalish va dirijorlik qilish kabi elementardan keng foydalanish darslarni yanada qiziqarli va jozibali bo`lishini ta`minlaydi. Musiqa darsi boshqa darslardan o`zining badiiyligi, qiziqarliligi, va bolalarga ko`proq ijodiy zavq, emotsional tuyg`ular va obrazli kechinmalar uyg`otishi bilan ajralib turadi.

Ma`lumki „Musiqa madaniyati“ darslari quyidagi o`ziga hos jihatlar bilan boshqa darslardan farq qilib turadi:

1.Masalan, musiqa san`ati boshqa san`at turlaridan idrok etilishiga ko`ra farq qiladi, ya`ni u boshqa san`at turlaridan o`zining ifoda vositalari, ya`ni „tili“ bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot so`z bilan, tasviriy san`at ranglar bilan, raqs san`ati harakat bilan ifodalansa, musiqa esa musiqiy tovushlarda vujudga kelgan ohang vositasida ifodalanadi.Yuqoridagi san`at turlarini ko`rish va eshitish orqali idrok qilsak, musiqani faqatgina diqqat bilan tinglabgina ifoda etamiz. Shuning uchun, ko`zi ojiz kishilardan ham yetuk musiqachilar yetishib chiqqanligi bizga tarixdan ma`lum bo`ladi.

2.Musiqa san`ati aniq vaqt o`lchovi bilan bog`langan san`atdir. Shuning uchun, ijro etilayotgan musiqa tempiga sozlanib, uning har bir elementini diqqat bilan tinglamasak, asarni mukammal idrok eta olmaymiz.

3.Musiqa madaniyati darslari musiqa nazariyasi va ijrochiligiga doir turli faoliyatlardan: vokal-xor mashg`ulotlari, musiqa savodi, musiqa tinglash, bolalar cholg`u asbobida chalish, ritmik harakatlar bajarish elementlaridan iborat.

4.Musiqa darsi o`zining aralash-integral dars tipi bilan boshqa fanlardan farq qiladi.

5.Musiqa san`ati bolalarga aktiv emotsional ta`sir ko`rsatadi, quvontiradi hamda ijodiy kechinmalar uyg`otadi. Yaxshi, mazmunli, qiziqarli musiqa darsidan bolalar xordiq chiqarib, badiiy ozuqa oladilar, quvnoq, xursand bo`lib chiqadilar.

Barcha fikrlarimizni umumlashtiradigan bo'lsak, musiqa darsi o'zining aktiv psixologik ta'siri bilan boshqa fanlardan farq qiladi. Shuningdek, musiqa darsi boshqa fanlar bilan chambarchas bog'liqdir. Tasviriy san'at, adabiyot, ona tili, matematika, tarix, pedagogika, psixologiya, vokal, ritmika va boshqalar musiqa darsini hayot bilan bog'lashga, mazmunli, qiziqarli qilib darsni olib borishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.G.M.Sharipova, D.F.Asamova, Z.I.Xodjayeva „Musiqqa o'qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuari”.Toshkent-2014.
- 2.O`zME Birinchi jild.Toshkent-2000.
- 3.Hasanov A.,„Musiqqa va tarbiya”-T.O`qituvchi 1993.
- 4.Yusupova N.,„Musiqqa savodi, metodika va ritmika”Toshkent 2010.Musiqqa nashriyoti.
5. M.S. Muxiddinova “Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida axborot-kompyuter texnologiyalarini musiqqa tarbiyasi vositasi sifatida qullashning xususiyatlari” 2020 yil
6. Sh.R.Mahkamova “Imkoniyati cheklangan bolalar va har tomonlama etuk avlodni tarbiyalashda musiqaning urni” 2020
7. Mahkamova Sh.R. Ta'lim jarayonida o'quvchi va talabalar bilimini baholash usullari va metodikasi // "Ekonomika i sotsium" №11(90) 2021//
8. Ikramov A.I. va boshqalar. “Ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari” mavzusidagi seminar trening materiallari. /Treninglar uchun qullanma. – T.: UMKXTM, 2002. -184b.
9. Niшонov A. va boshqalar. Baholash metodlari. O'quv-uslubiy qullanma. – T.: UMKXTRI, 2003. – 156 b
10. Сарсенбаева Р.М. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O'quv qullanma. – T.:“Moлия-iktisod”, 2019. – 388 b.
11. Сарсенбаева Р.М. Iktisodiy fanlarni o'qitishda qullaniladigan interaktiv metodlar. O'quv-uslubiy qullanma. – T.: TMI, 2015. – 152 b.

12. Сарсенбаева Р.М. “Касбий педагогика” ўқув фанини ўрганиш учун ишчи дафтар. Услубий қўлланма. –Т.: ТМИ, 2019. – 112 б.